

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.I.Nurmatova</b>	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi .....	107
<b>D.B.Mahametova</b>	
Use of information technologies in education.....	112
<b>M.Norinov</b>	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
<b>G.T.Hojikarimova</b>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	119
<b>X.M.Jo'rayev</b>	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari .....	123
<b>N.B.Odilxo'jazoda</b>	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
<b>B.T.Tojibayev, S.S.Isokov</b>	
Globalashuv kontekstida – ta'lim .....	132
<b>D.Q.Oxunova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
<b>N.E.Yuldasheva</b>	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari .....	140
<b>B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova</b>	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

---

FALSAFA

<b>Б.С.Ганиев</b>	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане .....	150
<b>M.D.Pardaeva</b>	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
<b>Z.P.Nadirova</b>	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot .....	165
<b>Z.A.Akhmedova</b>	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
<b>B.X.Karimov</b>	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
<b>L.M.Karimova</b>	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari .....	180
<b>M.M.Gulamova</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
<b>O.T.Sharipova</b>	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olam Kabir" haqida .....	189
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
<b>B.X.Hamdorov</b>	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

**BO'LAJAK TEXNIK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI  
MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA BOSQICHMA-BOSQICH RIVOJLANTIRISH  
TEKNOLOGIYASI**

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЭТАПНОГО РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА БАЗЕ  
МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ**

**TECHNOLOGY OF STEP-BY-STEP DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL  
COMPETENCE OF FUTURE TECHNICAL SPECIALISTS BASED ON MULTIMEDIA TOOLS**

**<sup>1</sup>Norinov Muxammadyunus**

<sup>1</sup>Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali, o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Bugungi jadal rivojlanuvchi davr talablariga muvofiq, o'zgaruvchan zamonaviy maktab ta'limi oldida ta'lim mazmuni va tuzilmasiga yangicha yondashuv zarurati mavjudligi sababli ko'plab dolzarb vazifalar yuzaga keldi. Endilikda zamonaviy o'quvchi – o'qitishda an'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanib emas, balki ularga mustaqil bilim olish hamda egallagan bilimlarini takomillashtirishga intilish malakalarini shakllantirishi hamda o'rgatishi zarur. Shuning uchun ham o'qituvchining o'zi kasbiy-mutaxassislik mahoratiga ega bo'lishi, hozirgi davr talablariga javob beruvchi yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni bilishi shart.*

*Maqolada kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni va uni multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi tadqiq etilgan.*

**Аннотация**

*В соответствии с требованиями современной динамично развивающейся эпохи перед меняющимся современным школьным образованием встало множество актуальных задач, обусловленных необходимостью нового подхода к содержанию и структуре образования. Теперь современному ученику необходимо не использовать традиционные методы обучения и воспитания, а формировать и обучать их навыкам самостоятельного обучения и стремления к совершенствованию полученных знаний. Поэтому педагог сам должен обладать профессионально-техническими навыками, уметь пользоваться новыми современными образовательными технологиями, отвечающими требованиям современности.*

*В статье исследуется содержание понятия профессиональной компетенции и технология его поэтапного развития на основе мультимедийных средств.*

**Abstract**

*In accordance with the requirements of today's dynamically developing era, the changing modern school education has faced many urgent tasks due to the need for a new approach to the content and structure of education. Now the modern student needs not to use traditional methods of teaching and upbringing, but to form and teach them the skills of independent learning and striving to improve the acquired knowledge. Therefore, the teacher himself must have professional and technical skills, be able to use new modern educational technologies that meet the requirements of modernity.*

*The article examines the content of the concept of professional competence and the technology of its gradual development based on multimedia tools.*

**Kalit so'zlar:** *kasbiy kompetensiya, axborot texnologiyalari, pedagogik mahorat, tarbiya jarayoni, ta'lim samaradorligi, pedagogik faoliyat.*

**Ключевые слова:** *профессиональная компетентность, информационные технологии, педагогическое мастерство, процесс воспитания, эффективность обучения, педагогическая деятельность.*

**Key words:** *professional competence, information technology, pedagogical skills, the process of education, the effectiveness of training, pedagogical activity.*

**KIRISH**

Har qanday fan o'qituvchisi, xususan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ham pedagogik faoliyatidan maqsad – o'quvchilarga kelajakda zamonaviy jamiyatda talab etiladigan yetuk barkamol shaxs bo'lish, ijodiy tafakkurga ega, intiluvchan inson bo'lib yetishlariga tayyorlash hamda zamonaviy bilim berishga erishishdan iborat.

“Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innoatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi”[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'qituvchining asosiy faoliyati komil insonga ta'lim va tarbiya berishdan iborat ekan, ana shu pedagoglarni yetkazib berishda faoliyat yurgizuvchi oliy ta'lim o'qituvchisi zimmasiga yanada og'ir vazifalarni yuklashi aniq. Bu vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs, o'qituvchi, pedagoglarni tayyorlashga har tomonlama haqli va munosib bo'lishi va ana shu vakolatga ega bo'lishi lozim. Biz yuqorida ana shunday vakolatga ega bo'lish huquqini pedagogning kasbiy kompetensiyasi deb belgilab oldik. Bu tushuncha albatta, pedagog faoliyatini amalga oshirishi uchun kasbiy mahorati hamda nazariy-amaliy tayyorgarligidir. Pedagogning u yoki bu mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarligi malaka tasnifi – kompetensiya egasi bo'lgan pedagog me'yoriy modelida aks etadi.

Ta'lim – shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalari va rivojlanishi va shakllanishida hammadan ham boshlang'ich va shu sababdan zarur bo'lgan asosiy omildir. Globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Bunday rivojlanishning asosiy sharti kasblarga qo'yiladigan talablar va o'zgaruvchan qiymat yo'nalishlarini hisobga olgan holda raqamli muhitda yashash va o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishga qodir bitiruvchini tayyorlashga qaratilgan milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishdir. Ushbu muammoni hal qilish professor-o'qituvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni va ularning o'quv jarayonini loyihalash hamda amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini oshirishni nazarda tutadi va masofaviy ta'limga yuqori ehtiyoj mavjud bo'lgan ayni paytda texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy sharoitda institutda texnik mutaxassislarni tayyorlash jarayoni muhandislik faoliyatining doimiy o'zgaruvchan vazifalari va uni amalga oshirish shartlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Ushbu o'zgarishlar, shuningdek, respublikamizda innovatsion tizimning yuqori sur'atlarda rivojlanishi zamonaviy muhandislik faoliyatining kasbiy salohiyatiga ta'sir qildi va oliy ta'lim tizimidan innovatsion, ijodiy fikrlash qobiliyatiga, zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jarayonida yuqori darajadagi texnik va yetarli fundamental bilimlarga ega bo'lgan, tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda hal qiladigan hamda kasbiy muammolarni hal qilishning yangi texnologiyalarini tezda o'zlashtira oladigan mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda mehnat bozorida bo'lgan talab uchun muayyan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bitiruvchi bo'lish yetarli emas. Keyingi paytlarda pedagogika fanida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi masala ko'p ko'rilmog'da. Kompetentlik (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Ma'lumki, kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Shu o'rinda mamlakatimizda kechayotgan tub o'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy

va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kun o'qituvchisidan auditoriyaga kirib kelishida shu kabi ko'plab masalalarni hal etishi zarur bo'ladi. Har bir o'qituvchi mazkur muammolarni o'z bilim va malakalariga muvofiq hal etadi. Shu sababli talabada fikrlash qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim bo'lgan o'quv axboroti materialini yangi innovatsion ta'lim usullariga tayanib, yetkazish yo'llarini topish zarur. Bunday usullarni topishda esa o'qituvchining kasbiy-mutaxassislik salohiyati yuqori darajada bo'lishi, ya'ni muntazam zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lgan holda, izlanishi shart bo'lib hisoblanadi. Mazkur masalalar hozir har bir o'qituvchi oldidagi dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

"Kasbiy moslashuv shaxsning kasbiy ko'nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur xislatlarning shakllanishida, xodimning o'z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo'lishining rivojlanishida ifodalanadi. Kasb sohasidagi ish bilan tanishuvida, kasb mahorati ko'nikmalarini, mahoratini egallashda, funktsional vazifalarni sifatli bajarishida va mehnat sohasidagi ijodkorlikda namoyon bo'ladi"[2, 8].

Pedagogik kasbiy kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassislari o'rtasida ilmiy munozara va bahslar davom etmoqda.

Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z-o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining malaka oshirish bo'g'inida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish hozirgi davr istiqbol talablaridan amaliyotchi o'qituvchilar yetarli hamda samarali foydalana olmayaptilar. Buning asosiy sabablari malaka oshirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmaganligida, faqat sanoqli olimlarga kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvga e'tibor qaratganligidadir.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

### XULOSA

Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak muhandisning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi bo'yicha ikki bosqichli tizimga o'tish doirasida ushbu jarayonni amalga oshirishning tashkiliy-metodik asoslarini asoslash nuqtayi nazaridan muxandis kadrlar tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Texnika oliy ta'lim tizimidagi tadqiqotlar va sinov tajribasi quyidagilar o'rtasidagi bir qator qarama-qarshiliklarni shakllantirishga imkon berdi:

- bo'lajak muxandislarining kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, ular orasida asosiy kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning malakasini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan va oliy ta'lim jarayonida rivojlanish muhandislarni kasbiy tayyorlashning mavjud tizimida nazariy va uslubiy yechimlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- turli sohalarda mutaxassislar tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha katta tajriba va masofaviy ta'lim bo'yicha muhandis tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish mexanizmining nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqilmaganligi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha O'UM, Toshkent, 2016.
2. N.G.Komilova. "Pedagogik imidj va kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2017.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2003.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2005.
5. Gulnoza, K. (2023). MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNINI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 444-448.
6. Mukhammadyunus, N., & Akhrorbek, E. (2023). ASPECTS OF THE FORMATION OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 16, 192-197.

7. Norinov, M., Ergashev, A., & Normatov, E. (2023). MASOFAVIY O 'QITISH MODELLARI VA UNING SAMARALI JIHATLARI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 19.
8. Norinov, M., & Yusufjonova, O. (2023). EFFECTIVE ASPECTS OF THE APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. *IMRAS*, 6(6), 344-353.
9. Teshaboev, M., Karimov, U., & Karimova, G. (2023). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF APPLIED PHILOSOPHY. *Oriental Journal of Social Sciences*, 3(05), 69-80.
10. Norinov, M., & Ergashev, A. (2023). KADRLAR TAYYORLASHDA KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *"Science Shine" International Scientific Journal*, 9(1). извлечено от <http://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/146>